UDK 159.9:378.14

TALABALAR AKADEMIK O‘ZLASHTIRISHIDAGI QONIQARLI O‘ZLASHTIRISHNING PSIXOLOGIK DETERMINANTLARI

Anarboyev Hayitboy Eshboy o‘g‘li,
Qarshi davlat universiteti tayanch doktoranti

Bugungi kunda oliy ta’lim tizimida talabalarning akademik o‘zlashtirishini oshirish, ularning individual-psixologik imkoniyatlarini aniqlash hamda ta’lim faoliyatining samaradorligini ta’minlovchi omillarni o‘rganish muhim ilmiy-amaliy masalalardan biri hisoblanadi. Axborot hajmining jadal ortib borishi, ta’lim mazmunining murakkablashuvi va talabalardan mustaqil faoliyatni talab qiluvchi zamonaviy ta’lim texnologiyalarining keng joriy etilishi o‘quv faoliyatining psixologik mexanizmlarini chuqur o‘rganishni taqozo etmoqda.

Talabaning akademik o‘zlashtirishi faqat uning intellektual imkoniyatlari bilan belgilanmaydi. Unda motivatsiya, xotira, axborotni qayta ishlash tezligi, diqqat, stressga barqarorlik, iroda, o‘zini o‘zi nazorat qilish, rejalashtirish, maqsad qo‘yish, shuningdek, individual-dinamik va kommunikativ xususiyatlar ham muhim ahamiyatga ega. Shu bois akademik o‘zlashtirishni birgina ko‘rsatkich asosida baholash yetarli emas. Talabaning o‘quv faoliyatida namoyon bo‘ladigan psixologik determinantlarni tizimli ravishda o‘rganish zarur.

Jahon ta’lim tizimida o‘quv faoliyati motivlarini shakllantirish, akademik muvaffaqiyatning psixologik omillarini aniqlash va talabalarning individual imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish masalalariga katta e’tibor qaratilmoqda. Shu nuqtayi nazardan, qoniqarli darajada o‘zlashtiruvchi talabalar faoliyatida akademik natijalarni belgilovchi omillarni aniqlash, ularning kuchli va zaif tomonlarini tahlil qilish hamda psixologik-pedagogik yordam yo‘nalishlarini ishlab chiqish dolzarb vazifalardan biridir.

Mazkur tadqiqotda ta’lim jarayonida qoniqarli o‘zlashtirish, yaxshi o‘zlashtirish va samarali o‘zlashtirishning ijtimoiy-psixologik determinantlariga alohida e’tibor qaratilgan bo‘lib, ushbu maqolada qoniqarli baho bilan o‘zlashtiruvchi talabalar faoliyatini belgilovchi yetakchi psixologik determinantlar tahlil qilinadi.

Tadqiqot natijalarini faktorli tahlil qilish natijasida qoniqarli o‘zlashtiruvchi talabalar akademik faoliyatini shartlovchi sakkizta asosiy determinant aniqlandi. Ushbu determinantlar kognitiv jarayonlar, individual-dinamik xususiyatlar, o‘quv motivatsiyasi, o‘quv faoliyatini tashkil etish va o‘zini o‘zi boshqarish bilan bog‘liq omillarni qamrab oladi.

Birinchi determinant “Quvvatni to‘g‘ri taqsimlay olmaslik” deb nomlandi. Mazkur determinant tarkibida axborotni qayta ishlash tezligi (-0,606), umumiy aqliy

qobiliyat (-0,552), xotira (-0,540), muvaffaqiyatga intilish motivatsiyasi (-0,531), muvaffaqiyatdan qochish motivatsiyasi (0,524), stressga barqarorlik (0,511) va erglik (0,508) kabi ko‘rsatkichlar namoyon bo‘lgan.

Ushbu natijalar qoniqarli o‘zlashtiruvchi talabalarda stressli vaziyatlarga nisbatan ma’lum darajadagi barqarorlik va ta’lim faoliyatiga energiya sarflash imkoniyati mavjudligini ko‘rsatadi. Biroq axborotni qayta ishlash tezligi, xotira va umumiy aqliy imkoniyatlardan o‘quv jarayonida yetarlicha samarali foydalanilmasligi akademik natijalarni cheklashi mumkin. Boshqacha aytganda, talaba ma’lum darajada kuch va imkoniyatga ega bo‘lsa-da, uni o‘quv vazifalariga to‘g‘ri yo‘naltirish va taqsimlashda qiyinchilikka duch keladi.

Shuningdek, muvaffaqiyatsizlikdan qochish motivatsiyasining mavjudligi talabaning o‘quv faoliyatiga munosabatini ehtiyotkor va tashqi bahoga yo‘naltirilgan tarzda shakllantirishi mumkin. Shu sababli qoniqarli o‘zlashtiruvchi talabalar bilan ishlashda ularning mavjud imkoniyatlarini to‘g‘ri yo‘naltirish, kognitiv resurslardan foydalanish strategiyalarini shakllantirish muhimdir.

Ikkinchi determinant “O‘quv jarayonidagi intellektual va kommunikativ sohalar nomutanosibligi” deb belgilandi. Ushbu determinantda intellektual plastiklik (-0,687), intellektual tezlik (-0,680), kommunikativ erglik (-0,602), kommunikativ plastiklik (-0,568) va kommunikativ tezlik (0,538) yuqori yuklamaga ega bo‘lgan.

Mazkur ko‘rsatkichlar qoniqarli o‘zlashtiruvchi talabalarning intellektual va kommunikativ imkoniyatlari o‘rtasida to‘liq uyg‘unlik mavjud emasligini ko‘rsatadi. Talaba kundalik muloqotda yetarlicha faol bo‘lishi mumkin, biroq o‘quv muammolarini tahlil qilish, murakkab axborotni qayta ishlash va bilimlarni amaliy vaziyatlarda qo‘llash jarayonida o‘z imkoniyatlarini to‘liq namoyon eta olmaydi.

Shu nuqtayi nazardan, ta’lim jarayonida talabalarni faqat tayyor bilimlarni o‘zlashtirishga emas, balki muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, savol berish, fikrini asoslash, munozarada ishtirok etish va o‘z bilimlarini amaliy faoliyat bilan bog‘lashga yo‘naltirish maqsadga muvofiq.

Uchinchi determinant “Munosabat va o‘quv motivlarining ekstrinsivligi” sifatida talqin qilindi. Unda kommunikativ erglik (-0,501), bilish motivi (-0,610) va erishish motivi (-0,608) o‘rtasidagi bog‘liqlik kuzatilgan.

Mazkur determinant qoniqarli o‘zlashtiruvchi talabalarning o‘quv faoliyatida tashqi motivlarning muhim o‘rin tutishini ko‘rsatadi. Ular ta’lim faoliyatini ko‘pincha baho, boshqalarning fikri, guruhdagi mavqe, muvaffaqiyatsizlikdan qochish yoki kelajakdagi ijtimoiy mavqe bilan bog‘lashlari mumkin. Bunday vaziyatda o‘quv faoliyatining ichki mazmuni, bilim olishga bo‘lgan qiziqish va o‘zini rivojlantirish ehtiyoji yetarlicha kuchli bo‘lmasligi ehtimoli mavjud.

Shuning uchun ta’lim jarayonida talabalarning tashqi motivlarini ichki motivlarga aylantirish, fan mazmunining amaliy ahamiyatini ko‘rsatish, mustaqil fikrlash va kasbiy qiziqishni rivojlantirish muhim ahamiyatga ega.

To‘rtinchi determinant “O‘zini o‘zi hurmat qilish va rivojlantirish motivlarining roli” deb nomlandi. Ushbu determinant o‘zini o‘zi rivojlantirish (0,581), amotivatsiya (0,578), introeksiyalash (0,541), eksternal motivatsiya (0,530) va o‘zini o‘zi hurmat qilish (0,527) ko‘rsatkichlari bilan tavsiflangan.

Natijalar qoniqarli o‘zlashtiruvchi talabalar o‘qishni davom ettirish, o‘z mavqeini saqlash va boshqalar oldida ijobiy ko‘rinishga intilish orqali o‘quv faoliyatiga jalb qilinishini ko‘rsatadi. O‘zini o‘zi hurmat qilish va rivojlantirishga intilish ijobiy psixologik resurs sifatida namoyon bo‘lsa-da, motivatsiyaning tashqi baho va ijtimoiy talablar bilan haddan tashqari bog‘lanishi o‘quv faoliyatining barqarorligini pasaytirishi mumkin.

Shu sababli talabalarda o‘z imkoniyatlarini mustaqil baholash, shaxsiy maqsadlarni belgilash va o‘z rivojlanishiga mas’uliyat bilan yondashish ko‘nikmalarini shakllantirish zarur.

Beshinchi determinant “Faollik va nazoratning yetarlicha shakllanmaganligi” deb belgilandi. Unda bilishdagi faollik va o‘quv yo‘nalganligi (-0,597), o‘quv topshiriqlarini bajarishdagi qat’iyatlilik va mustaqillik (0,595), o‘z harakatlarini nazorat qilishning shakllanganligi (-0,528) kabi ko‘rsatkichlar ajralib turadi.

Qoniqarli o‘zlashtiruvchi talabalar topshiriqlarni bajarishda ma’lum darajada qat’iyat va mustaqillik ko‘rsatishlari mumkin. Biroq o‘quv materialining mazmunini chuqur anglash, o‘z faoliyatini muntazam nazorat qilish va xatolarni tahlil qilish bilan bog‘liq ko‘nikmalar yetarli darajada shakllanmagan bo‘lishi mumkin. Demak, topshiriqni bajarishning o‘zi akademik muvaffaqiyat uchun yetarli emas; uni anglash, natijani baholash va zarur hollarda faoliyatni tuzatish ham muhimdir.

Oltinchi determinant “Diqqat va o‘zini o‘zi tartibga solish” deb nomlandi. Uning tarkibida o‘quv mashg‘ulotlari uchun optimal sharoitning yaratilganligi (0,557) hamda diqqat va o‘zini o‘zi tartibga solish (0,504) ko‘rsatkichlari mavjud.

Mazkur natijalar ta’lim muhiti va talabaning o‘z faoliyatini boshqarish qobiliyati o‘rtasidagi bog‘liqlikni ko‘rsatadi. Qulay o‘quv sharoiti o‘zlashtirish uchun zarur bo‘lgan tashqi omil bo‘lsa-da, uning o‘zi yetarli emas. Talabaning diqqatini boshqara olishi, chalg‘ituvchi omillarni kamaytirishi, vaqtni to‘g‘ri taqsimlashi va o‘quv vazifalarini izchil bajarishi akademik natijalarni yaxshilashga xizmat qiladi.

Yettinchi determinant “Iroda kuchi” deb nomlandi. Mazkur determinantni asosan iroda kuchi ko‘rsatkichi (0,512) tashkil etadi. Bu natija qoniqarli o‘zlashtiruvchi talabalarda maqsadga erishish uchun yetarli darajada irodaviy imkoniyat mavjudligini ko‘rsatadi. Biroq mavjud iroda kuchidan o‘quv faoliyatida izchil va maqsadga muvofiq foydalanish muhimdir. Iroda imkoniyatlarining mavjudligi ularni avtomatik tarzda yuqori akademik natijaga olib kelmaydi; ular aniq maqsad, reja va muntazam faoliyat bilan uyg‘unlashgandagina samarali bo‘ladi.

Sakkizinchi determinant “O‘zini o‘zi tashkil etish usullari” deb nomlandi. Unda korreksiya (0,504), o‘zini nazorat qilish (0,362), rejalashtirish (0,519), vaziyatni tahlil qilish (0,571) va maqsad qo‘yish (0,554) komponentlari yuqori yuklamaga ega.

Mazkur determinant qoniqarli o‘zlashtiruvchi talabalarda o‘z faoliyatini tashkil etishning muayyan psixologik resurslari mavjudligini ko‘rsatadi. Talaba vaziyatni tahlil qilish, maqsad qo‘yish, rejalashtirish va o‘zini nazorat qilish imkoniyatiga ega. Biroq ushbu imkoniyatlarning ta’lim faoliyatida qanchalik izchil qo‘llanishi akademik natijalar bilan bog‘liq bo‘ladi.

Talabalik davrida o‘qishdan tashqari turli ijtimoiy va shaxsiy vazifalarning mavjudligi e’tiborning bo‘linishiga olib kelishi mumkin. Shu sababli o‘zini o‘zi tashkil etish ko‘nikmalari talabaning akademik faoliyatini samarali boshqarishida muhim psixologik omil hisoblanadi.

Tadqiqot natijalari qoniqarli o‘zlashtiruvchi talabalar bilan yuqori akademik natijaga ega talabalar o‘rtasida axborotni qayta ishlash tezligi va xotira ko‘rsatkichlarida farqlar mavjudligini ko‘rsatdi.

Xususan, axborotni qayta ishlash tezligi bo‘yicha qoniqarli o‘zlashtiruvchi talabalar ko‘rsatkichi nisbatan past bo‘lib, guruhlar o‘rtasidagi farq statistik jihatdan ahamiyatli ekanligi qayd etilgan ($H=8,563$; $p<0,05$). Xotira ko‘rsatkichi bo‘yicha ham guruhlar o‘rtasida sezilarli farqlar aniqlangan ($H=15,837$; $p<0,001$).

Ushbu natijalar talabaning akademik o‘zlashtirishida kognitiv jarayonlarning muhim o‘rin tutishini ko‘rsatadi. Ayniqsa, katta hajmdagi axborotni qisqa vaqt ichida qabul qilish, qayta ishlash, tizimlashtirish va eslab qolish qobiliyati oliy ta’lim sharoitida alohida ahamiyatga ega.

Shu bilan birga, akademik o‘zlashtirishni faqat kognitiv imkoniyatlar bilan izohlash to‘g‘ri emas. Kognitiv resurslarning samarali qo‘llanishi motivatsiya, diqqat, iroda, o‘zini o‘zi nazorat qilish va o‘quv faoliyatini rejalashtirish kabi omillar bilan chambarchas bog‘liq. Shuning uchun talabaning akademik natijalarini yaxshilashga qaratilgan psixologik-pedagogik ishlar kompleks xarakterga ega bo‘lishi kerak.

Aniqlangan determinantlar qoniqarli o‘zlashtiruvchi talabalar bilan ishlashda bir qator amaliy yo‘nalishlarni belgilash imkonini beradi. Avvalo, talabalar o‘rtasidagi individual farqlarni hisobga olgan holda o‘quv jarayonini tashkil etish zarur.

Talabalarga katta hajmdagi axborotni kichik mantiqiy qismlarga ajratish, asosiy va ikkilamchi ma’lumotlarni farqlash, konspekt tuzish, takrorlash va amaliy topshiriqlar orqali bilimlarni mustahkamlash usullarini o‘rgatish maqsadga muvofiq. Bu usullar axborotni qayta ishlash va xotira bilan bog‘liq qiyinchiliklarni kamaytirishga yordam beradi.

Ikkinchidan, talabalarning ichki o‘quv motivatsiyasini rivojlantirishga e’tibor qaratish lozim. Fan mazmunining kelajakdagi kasbiy faoliyat bilan bog‘liqligini tushuntirish, mustaqil tanlov imkoniyatini yaratish va individual yutuqlarni qayd etish talabaning o‘qishga bo‘lgan qiziqishini oshirishi mumkin.

Uchinchidan, o‘zini o‘zi boshqarish ko‘nikmalarini rivojlantirish muhim. Rejalashtirish, maqsad qo‘yish, vaqtni taqsimlash, o‘z faoliyatini nazorat qilish va natijalarni tahlil qilish bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlar tashkil etish akademik o‘zlashtirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

To‘rtinchidan, talabalarning kommunikativ imkoniyatlarini ta’lim faoliyati bilan uyg‘unlashtirish zarur. Guruhiy muhokamalar, muammoli vaziyatlar, loyiha ishlari, debatlar va hamkorlikdagi topshiriqlar orqali kommunikativ faollikni akademik vazifalarni hal qilishga yo‘naltirish mumkin.

Beshinchidan, talabaning stressga barqarorligini qo‘llab-quvvatlash, imtihon va nazorat vaziyatlarida yuzaga keladigan xavotirni kamaytirish bo‘yicha psixologik treninglardan foydalanish maqsadga muvofiq. Bunda psixologik xizmat, tyutorlar va professor-o‘qituvchilarning hamkorligi muhim ahamiyatga ega.

Tadqiqot natijalari qoniqarli akademik o‘zlashtirishga ega bo‘lgan talabalar faoliyati bir nechta o‘zaro bog‘liq psixologik determinantlar bilan shartlanishini ko‘rsatdi. Faktorli tahlil asosida sakkizta yetakchi determinant: “Quvvatni to‘g‘ri taqsimlay olmaslik”, “O‘quv jarayonidagi intellektual va kommunikativ sohalar nomutanosibligi”, “Munosabat va o‘quv motivlarining ekstrinsivligi”, “O‘zini o‘zi hurmat qilish va rivojlantirish motivlarining roli”, “Faollik va nazoratning yetarlicha shakllanmaganligi”, “Diqqat va o‘zini o‘zi tartibga solish”, “Iroda kuchi” hamda “O‘zini o‘zi tashkil etish usullari” aniqlandi.

Aniqlangan determinantlar qoniqarli o‘zlashtirishni faqat bilim hajmi bilan emas, balki talabaning kognitiv, motivatsion, irodaviy, kommunikativ va o‘zini o‘zi boshqarish xususiyatlari bilan izohlash imkonini beradi. Ayniqsa, axborotni qayta ishlash tezligi va xotira ko‘rsatkichlaridagi farqlar akademik o‘zlashtirishning muhim kognitiv shartlaridan biri ekanligini ko‘rsatdi.

Shuningdek, qoniqarli o‘zlashtiruvchi talabalarda ijobiy psixologik resurslar — iroda kuchi, rejalashtirish, maqsad qo‘yish, vaziyatni tahlil qilish va o‘zini nazorat qilish imkoniyatlari mavjud. Biroq ushbu resurslardan o‘quv faoliyatida tizimli foydalanish har doim ham yetarli darajada shakllanmagan.

Shu sababli oliy ta’limda akademik o‘zlashtirishni oshirishga qaratilgan psixologik-pedagogik yondashuvlar individual xususiyatlarni hisobga olishi, kognitiv imkoniyatlarni rivojlantirish bilan bir qatorda motivatsiya, diqqat, iroda, o‘zini o‘zi boshqarish va o‘quv faoliyatini tashkil etish ko‘nikmalarini takomillashtirishga yo‘naltirilishi lozim. Bunday kompleks yondashuv talabalarning mavjud psixologik imkoniyatlarini samarali ta’lim faoliyatiga yo‘naltirish uchun zarur shartlardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Jabborov A.M., Jabborova M.A. Shaxs psixologiyasi: shaxs taraqqiyoti determinantlari. – Qarshi, 2026. – 196 b.

2. Jabborova M.A. Talabalar akademik o‘zlashtirishining psixologik determinantlari: psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. – Buxoro, 2024. – 142 b.

3. Гордеева Т.О. Психология мотивации достижения. – М.: Смысл; Academia, 2006. – 336 с.

4. Ишков А.Д. Учебная деятельность студента: психологические факторы успешности. – М.: Изд-во АСВ, 2004. – 224 с.

5. Шапоров А.М. Педагогические условия академической успешности обучающихся: автореф. дис. ... канд. пед. наук. – Ярославль, 2022. – 23 с.

6. U.D. Kadyrov, GU Kadyrov. DRUG ADDICTION AS A SOCIAL-PSYCHOLOGICAL PROBLEM. SCIENCE AND INNOVATION, INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL 3 (ISSUE 3), 80-83.

7. U.D. Qodirov, I.I. Khojiboev, A.E. Turakhanov, A.S.Nurmamatov. Psychological Factors In The Development Of Professional Competences Of Trainees Increasing Qualification In The System Of Public Education. European Journal of Molecular & Clinical Medicine 7 (3), 3836-3843.

8. У.Д.Кадыров, К.Х. Авазов. Современные аспекты формирования сознания личности в обеспечении устойчивого развития общества. Интернаука, 53-54.